



**BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVITY  
HISOBOTLARNI MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO  
STANDARTLARIGA MUVOFIQLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

*O'ralov Mirzoxid Abdug'ani o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqligini takomillashtirish masalalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida moliyaviy hisobotlarni tizish tartibi, uning amaliyotda qo'llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarining amaliy tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, kichik va o'rta biznes.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. Xususan, so'nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo'yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o'tildi desak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi2 (Mirziyoyev, 2020) qarori qabul qilinishi va unga binoan, 18ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlangani yurtimizda ushbu yo'nalishda ham jiddiy ishlarga qo'l urilayotganidan dalolat beradi. Bu – oqilona yo'l. Binobarin, biz xalqaro doiraga, jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro darajaga mos bo'lishi lozim. Mazkur qarorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan davlat sektorlarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha yo'l – yo'riq va ko'rsatmalar berilgan. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, Budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro



munosabatlarni globallashuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o‘z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi shuningdek moliyaviy holatni tushinish asosida chet el ivesitsiyalarini hajmini oshishi va donorlik mablag’larini ko‘payishi imkonini beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minalash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

➤ 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

➤ 2021-yil yakuniga qadar buxgaltyerlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan (keyingi o‘rinlarda — xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta’minalashdi.

➤ O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, ushbu bandda ko‘rsatilmagan davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o‘tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1-iyunga qadar rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini ta’minalas.

➤ 2021-yildan boshlab, MHXS va auditning xalqaro standartlari (keyingi o‘rinlarda — AXS) bo‘yicha o‘qitish faqat buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotning akkreditatsiyasidan o‘tgan o‘quv markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlari litsenziyalanadigan faoliyat turlarini amalga oshirish bo‘yicha qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga rioya qilish sharti bilan, tegishli litsenziya olmasdan MHXS va AXS bo‘yicha o‘qitish va malaka oshirish yuzasidan litsenziyalangan faoliyat turlarini amalga oshirish huquqiga egadir;

➤ 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, tajriba-sinov oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha fanlar faqat xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” yoki “AXS bo‘yicha audit” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladi;

➤ xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo‘lgan talabgorlar oliy ta’lim muassasalarini magistraturasining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” mutaxassisliklariga kirish imtihonlarini topshirmsandan to‘lov-kontrakt asosida kirish huquqiga ega.



## Milliy standartlar bo'yicha moliyaviy hisobotlar

Transformatsiya



MHXS bo'yicha milliy valutadagi moliyaviy hisobotlar

Translyatsiya



MHXS bo'yicha funksional valutadagi moliyaviy hisobotlar

Konsolidatsiyalashtirish



## Guruhning MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlari

### 1-rasm. Hisobotlar shaklini o'zgartirish bosqichining konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlarini tuzish jarayonidagi o'rni

«Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori 2020 yil fevral oyida rasmiy matbuotda nashr etilgandi.

Unga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, buxgalteriya hisobi yuritilishini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (**MHXS**) **asosida** tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab, moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashga o'tadi.

Qarorda asosiy maqsad - xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, deb belgilangan.

### Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) nima uchun kerak va ular nimalardan iborat?

Investorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar (masalan, davlat organlari, kasaba uyushmalari, biznes-sheriklar va h.k.) o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotdan manfaatdor bo'ladi. Bu manfaat esa ularning iqtisodiy, investitsion va huquqiy qaror chiqarishlari zaruratidan kelib chiqadi.

Misol uchun, ular aksiyador kiritgan mablag'lari qanchalik foyda keltirishi, biznes mulki qanchalik o'sgani, qarzdorlik holati qanday ahvoldaligi kabi savollar bilan qiziqishlari tabiiy. Undan tashqari, salohiyatlari investor biror biznesga mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqidagi qarorini yaxshilab baholashga urinadi, bunda u tashkilotni ish



yuritayotgan tarmoqdagi boshqa shirkatlar bilan solishtirib ko‘rishiga to‘g‘ri keladi. Buning uchun mazkur tashkilotning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holati va o‘tgan davr faoliyati natijalari haqidagi raqamli va tushuntirish matnlaridan iborat hisobotga zarurat tug‘iladi. Aynan shu zaruratni ta‘minlash maqsadida, markazi Londonda joylashgan Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlar kengashi ushbu hisobot andozalarini ishlab chiqqan.

Hisobot standartlari moliyaviy ma'lumotlarga oid axborotni qanday mezonlarga ko‘ra tan olish, ularni baholash, tasniflash, ifodalash haqidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ularning ba'zilarini aytib o‘tamiz: MHXS (IAS) 1 «Moliyaviy hisobot ko‘rinishlari», MHXS (IAS) 2 «Zaxiralar», MHXS (IAS) 16 «Asosiy vositalar», MHXS (IFRS) 15 «Xaridorlar shartnomalaridan olingan savdo tushumlari», MHXS (IFRS) 16 «Ijara», MHXS (IAS) 41 «Qishloq xo‘jaligi», MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy instrumentlar» va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 24.02.2020.
2. IFRS Foundation web sites
3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
4. Wallstreetmojo.com
5. Karimov A, Qo’ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so’zi, 2020.
6. Muslimov J, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanday o’tiladi? Zamin.uz 09.03.2020.
7. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.